

HAVASKORLIK BADIY JAMOALARI TUSHUNCHASI VA FUNKSIONAL VAZIFASI

Sh.K. O‘rinov

BuxDU Musiqa ijrochiligi va
madaniyat kafedrası o‘qituvchisi

G. Halimova

BuxDU San‘atshunoslik fakulteti talabasi

Adabiyot, san‘at va madaniyat yashasa, millat va xalq,
butun insoniyat bezavol yashaydi.

Sh.Mirziyoyev

Annotasiya: Mazkur maqolada havaskorlik badiiy jamoalari haqidagi tushunchalar yoritilgan. Badiiy havaskorlik jamoalarini rivojlantirish uchun bugungi kunda Prezidentimiz va tegishli idoralar tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar mohiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: havaskorlik, madaniyat , badiiy jamoalari, jamoalar , folklor, to‘garak, ansambl, aktyor , rejissor, musiqachi, baletmeyster.

Badiiy havaskorlik – asosiy ishdan ajralmagan holda jamoa (to‘garak, studiya, xalq teatrlari) yoki yakka holda (xonanda, badiiy so‘z ustasi, sozanda, raqqosa, akrobat va boshqalar) ijod qilish; xalq ijodi shakllaridan. Turkistonda faqat yirik shaharlar (Toshkent, Samarqandda, keyinchalik Andijon, Namangan, Kattaqo‘rg‘on, Yangi Marg‘ilon)da musiqa va drama Badiiy havaskorlik to‘garaklari harbiy va fuqaro yig‘inlari bilan bir vaqtda tashkil etildi. O‘zbek xalqi umumiy madaniyatining yuksalishi, oliy va o‘rta maktablarning ko‘payishi, ommaning savodxon bo‘lishi,

shahar va qishloqlarda klublarning tashkil qilinishi va boshqa omillar tufayli rivojlandi. 20-yillar o‘rtasida ishchi-yoshlar teatrlari, 30-yillarda drama va musiqa, keyinchalik estrada va sirk jamoalari, turli ansambllar (xalq raqsi, qo‘shiq va boshqalar), orkestrlar paydo bo‘ldi. 1959-yildan ularning eng yaxshilariga “xalq ashula va raks ansambli”, “xalq teatri” kabi unvonlar berila boshladi. 1968-yildan O‘zbekistonning eng yaxshi Badiiy havaskorlik jamoalari xorijiy mamlakatlarga gastrolga chiqa boshladi. 70-yillarning 2-yarmi, 80-yillarda ashula va raqs, folklor-etnografik ansambllar Badiiy havaskorlik san’atida peshqadamlik qildi. Natijada xalq og‘zaki ijodiyotining ko‘pgina janrlari, asarlari tiklanib, sahnalar va maydonlarda ijro etildi. “Shalola” (keyinchalik “Boysun”), “Sumalak”, “Nozanin”, “Beshqarsak”, “Doston” kabi o‘nlab xalq ansambllari o‘z san’atlarini xorijiy mamlakatlarda ham namoyish etishgan. Shu davrda “Paxtaoy” va “Bulbulcha” kabi bolalar ansambllari ham shuhrat qozongan. Bir qator dorbozlar guruhlari ham tashkil topgan.

O‘zbekistonning mustaqilligi tufayli Badiiy havaskorlikda ham yangi davr boshlandi. Tarixga, ma’naviy merosga, xalq ijodiyotiga e’tiborning kuchayishi o‘z navbatida Badiiy havaskorlik rivojiga ham turtki berdi. Ayniqsa, milliy bayram, navro‘zning tiklanishi va mamlakat miqyosida o‘tkazilishi natijasida navro‘z bilan bog‘liq o‘yinlar, tomoshalar, marosimlar tiklandi. Bunda malakali san’atkorlar bilan bir qatorda Badiiy havaskorlik jamoalari, xalq ijodkorlarining xizmatlari katta bo‘ldi. Bu davrda estrada havaskorligi taraqqiy topdi. Xalq o‘yinlarini tiklash va yanada rivojlantirishga qaratilgan bayramlarni o‘tkazish an’anaviy tus oldi. Folklor va etnografiya, raqs san’ati, dorbozlik, qo‘g‘irchoq teatri, askiya, qiziqchilik va masxarabozlik yo‘nalishlaridagi jamoalarning faoliyati izchil va samarali bo‘ldi. Bolalarning “Tomosha” nomli o‘ziga xos musiqali teatri maydonga keldi. Ayniqsa, 80-yillarda inqirozga uchray boshlagan Badiiy havaskorlik teatri qaddini rostdashga kirishdi. 1999-yildan o‘tkazila boshlagan “Nihol” teatr san’ati havaskorligi respublika ko‘riktanlovi natijalari shundan dalolatdir.

Har yili keng nishonlanadigan Mustaqillik, Navro‘z bayramlarining katta tomoshalari dasturida Badiiy havaskorlik vakillarining ishtiroki mazkur san’at

yo‘nalishini yanada rivojlanishida katta turtki bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasida bir qancha musiqa jamoalari, ashula va raqs ansambllari, drama va havaskorlik to‘garaklari mavjud. Bu jamoalarga (eng yirik klublarda), asosan, professional aktyor, rejissyor, musiqachi, baletmeyster va boshqa rahbarlik qiladi. Ularning repertuarlari o‘zbek va jahon xalqlari dramaturglarining asarlari, qo‘shiq va raqslaridan iborat. Musiqa, xor, raqs Badiiy havaskorlik ida erishilgan katta yutuqlar turli ko‘rik va tanlovlar, festivallarda namoyish etib boriladi. O‘zbekistonda turli millat vakillarining Badiiy havaskorlik guruhdari (mas, koreys, qozoq, rus va boshqalar) mavjud. O‘zbekistondagi professional san’at jamoalari (teatrlar, ashula, raqs ansambllari va boshqalar) o‘z safini ko‘p hollarda havaskorlar hisobiga to‘ldirib boradi.

O‘zbekistonda tasviriy va amaliy san’at sohasida ham havaskorlik tez rivojlanmoqda. Havaskor rassom, haykaltarosh, naqqosh, o‘ymakor, zarbchi, rixtagar, kulol, kashtado‘z, zardo‘zlarning faoliyatlari san’at rivojiga katta hissa bo‘lib qo‘shilmoqda. Kino va ftohavaskorlik jamoalari o‘z ijodlarida O‘zbekiston tabiatini, undagi mehnat jarayonini, fan va madaniyat sohasidagi muvaffaqiyatlarni aks ettirishga institutilmoqdalar.

Bolalar orasida Badiiy havaskorlik san’atning har xil turlari bo‘yicha bolalar bilan sinfdan va maktabdan tashqari o‘tkaziladigan mashg‘ulotlardir. Buning natijasida bolalarda badiiy-ijodiy ehtiyoj va qiziqishlar uyg‘otiladi, qobiliyatlari o‘stiriladi, ularga estetik tarbiya va badiiy ta’lim beriladi. Bolalar Badiiy havaskorligi xalq talantlarini aniqlash va kamolga yetkazishning ilk bosqichi bo‘lib, o‘quvchilarni kelgusida san’at sohasida professional ma’lumot olishga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Fedotov P.G. Menedjment v sfere kulturi. Velikiy Novgorod., 2015.
2. Kabushkin N.I. Osnovi menedjmenta: ucheb.osobiye. – Moskva., 2009.
3. Ilyenkova S.D., Kuznetsov V.I. Sotsialniy menedjment: ucheb.-metod. Kompleks. – Moskva., 2008.

4. Tulchinskiy G.L., Shekova YE.L. Menedjment v sfere kulturi: Ucheb.posobiye. – SPb., 2007.
5. 44 Коссов Т.В., Переверзев М.П. Менеджмент в сфере культуры и искусство: учеб. Пособие. – Москва., 2007. – С. 20.
6. Переверзев М.П., Шайденко Н.А., Басовский Л.Е. Менеджмент: учебник / Под общ.ред. М.П.
7. Urinov S. K., Rakhmatova M. THE ROLE OF CULTURE AND ART OF UZBEKISTAN ON A GLOBAL SCALE //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 370-376.
8. Orinov S. K., Qodirova V. NOMODDIY-MADANIY MEROSNI O‘RGANISHDA “AVESTO” NING O‘RNI //TA‘LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 83-86.
9. Orinov S. K., Boboqulova S. MADANIYAT VA SAN‘AT BOSHQARUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI //TA‘LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 78-82.
10. Orinov S. K. et al. MADANIYAT MARKAZLARI AHOLINING IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OBYEKT SIFATIDA //TA‘LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 68-72.
11. Orinov S. K., Abdusalomova H. TEATRLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 766-770.
12. Orinov S. K. et al. MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATIDA AHOLINING TURLI QATLAMLARIGA DIFFERENSIAL YONDASHUV //TA‘LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 73-77.
13. O‘rinov S. K., Abduraxmonova X. MADANIYAT VA SAN‘AT SOHASIDAGI BOSHQARUVNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //PEDAGOG. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 226-231.